

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TABIIY FANLARGA  
OID TASAVVUR VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH  
HAMDA RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI**

*Bobonazarova Nasiba Zokirjon qizi*

*UrDPI, Pedagogika fakulteti, "Maktabgacha ta'lim va tabiiy fanlar"*

*kafedra*

*o'qituvchi-stajyor*

*e-mail: [nasibabobonazarova262@gmail.com](mailto:nasibabobonazarova262@gmail.com)*

**Annotatsiya:** boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlarga oid tasavvur va tushunchalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari, shuningdek, ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining roli to'g'risida fikr yuritilgan.

**Abstract:** *the methodological foundations of the formation and development of primary school students' ideas and concepts about natural sciences and the role of the teacher in the proper organization of this process are discussed.*

**Аннотация:** *освещены методические основы формирования и развития представлений и понятий о естественнонаучных дисциплинах у учащихся начальных классов, а также роль учителя в правильной организации данного процесса.*

**Kalit so'zlar:** *ilmiy dunyoqarash, ekologik tafakkur, tasavvur, tushuncha, ekologik mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, ko'rgazma, amaliy ish, tajriba, kuzatuv, integratsiya.*

**Key words:** *scientific worldview, ecological thinking, imagination, understanding, ecological responsibility, social responsibility, exhibition, practical work, experience, observation, integration.*

**Ключевые слова:** *научное мировоззрение, экологическое мышление, воображение, понимание, экологическая ответственность, социальная ответственность, выставка, практическая работа, опыт, наблюдение, интеграция.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, tabiatga ongli munosabatda bo'lishga yo'naltirish va ekologik tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bu jarayonda asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Chunki bolalik davrida o'zlashtirilgan tushuncha va tasavvurlar keyinchalik chuqurroq bilimlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Tabiiy fanlar o'quvchilarda olamni kuzatish, tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida, albatta, ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bu o'quvchilar faol idrok etish, qiziqish asosida o'rganish, amaliy faoliyat orqali bilim olish kabi xususiyatlarga ega. Ular uchun abstrakt tushunchalardan ko'ra, real voqelik, tajriba asosida tushuniladigan hodisalar muhimroqdir. Shu bois tabiiy fanlarni o'qitishda ko'proq ko'rgazmalilik, eksperimentlar, o'yinli metodlardan foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiy fanlarni o'qish jarayonida quyidagi asosiy yo'nalishlardagi bilimlarni o'zlashtiradilar: tirik va noorganik tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot olami haqida umumiy tushunchalar, odam va uning salomatligi, ob-havo, fasllar, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik ong va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat.

Bu tushunchalarni shakllantirish jarayoni faqat faktlarni yodlash emas, balki o'quvchining kuzatish, tahlil, umumlashtirish kabi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlarga oid tasavvur va tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida tushunchalarni tasavvurlardan farq qila bilish kerak.

Tasavvur sezgi organlar faoliyatining, xotiraning yoki tasavvur qilishning mahsulidir. Tushuncha tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga

keladi. Masalan, qushni tasavvur qilish uchun unga qarash kifoya. O'sha qush to'g'risida tushuncha hosil qilish uchun esa aniq bilimlar va ularni tizimlashtirish bo'yicha fikrlash kerak bo'ladi.

Qabul qilish va tasavvurlar ayrim narsalarning qiyofasidir. Tushunchalar esa o'zida butun narsalar sinfiga taalluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi. Masalan, "barg" tushunchasi daraxt, buta, o't-o'simliklarda o'sadigan hamma barglarga taalluqlidir.

Tasavvurlar tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtasida keskin chegara yo'q.

Tasavvurlar narsalarning muhim xususiyatlarini tobora ko'proq aks ettirib borishi bilan umumlashadi hamda tushunchalarga aylanadi. Ayni vaqtda tushuncha o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. U yoki bu narsa yoxud tabiat ob'ektlari to'g'risida tasavvurlarning bo'lishi ular to'g'risidagi tushunchadan dalolat bermaydi. Tushuncha ko'pgina ayrim hodisalarning muhim belgilarini umumlashishi sifatida hosil bo'ladi.

Tabiiy fanlarni o'qir ekan, o'quvchilar quyi sinflarda dastlab tabiiy fanlarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar. Keyingi sinflarda esa ular tajribalar o'tkazish, kuzatishlar olib borish, ekskursiyalar va amaliy ishlar davomida tabiat to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich ta'limda quyidagi uslubiy yondashuvlar tabiiy fanlar bo'yicha tasavvurlarni rivojlantirishda samarali hisoblanadi:

- ko'rgazmali ta'lim: suratlar, maketlar, tabiiy ob'ektlar orqali mavzuni tushuntirish.
- tajriba va kuzatuvlar: oddiy tajribalar o'tkazish orqali hodisalarning mohiyatini tushunish.
- integratsiyalashgan yondashuv: boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish (masalan, matematika va atrof-muhit).
- o'yinli metodlar: rolli o'yinlar, topishmoqlar, savol-javoblar orqali faollikni oshirish.

Shuningdek, STEAM yondashuvi, ya'ni ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika elementlarini uyg'unlashtirish vositasida dars mashg'ulotlarini tashkil etish ham yanada ta'sirchan xarakterga ega bo'ladi.

Bu jarayonda o'qituvchining roli eng muhim va rad etib bo'lmaz ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi, fikrlashga undovchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Savol berishga, kuzatishga, tahlil qilishga undaydigan muhit yaratish orqali o'qituvchi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish — bu izchil, tizimli yondashuvni talab etadigan jarayon. O'qituvchining yondashuvi, metodik uslublarni to'g'ri tanlashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda dars tashkil etishi bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Natijada, bolalarda ilmiy dunyoqarash, tabiatga ongli munosabat va ekologik mas'uliyat shakllanadi. Bu esa, kelajakda ongli, ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalashda muhim omildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.I.Nuriddinova – Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi – o'quv qo'llanma, Toshkent-2005.
2. X.B. Norbo'tayev, Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2016. - № 6. – S. 34 – 39
3. Y.V.Malikova, Tabiiy fanlar, o'rta umumiy ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, – Toshkent. "Novda Edutainment", 2023.– 136 b.
4. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20.02.2023, 16-son, 403-412 betlar.
5. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 SJIF February 2022, 220-229 betlar.